



Vatanga bo'lgan muhabbat hissini mahalliy turizm orqali singdirish

Saidqulova Odinaxon Mamasoliyevna.

*Andijon viloyati Baliqchi tumani 34 - umumiy o'rta ta'lim
maktabi geografiya fani o'qituvchisi.*

Annotatsiya: Maqola muallifi geografiya fani o'qituvchisi sifatida o'quvchilar qalbida Vatanga muhabbat hissini ildiz ottirmog'i uchun o'quvchilarni mahalliy diqqatga sazovor joylarni ziyorat qilish lozim deya o'z fikrini bildiradi. Turizm sohasini mamlakat taraqqiyoti uchun yuksak baholaydi. Turizmni rivojlantirishga chorlaydi.

Kalit so'zlar: *Turizm, mahalliy turizm, ichki turizm, Vatanga muhabbat hissi, jismoniy shaxs, muqaddas tuyg'u*

Inson ega bo'lgan narsalar ichida eng bebahosi – dini va Vatanidir. Biror inson yo'qki, Vatanini ulug'lamasa. Chunki Vatan uning kindik qoni to'kilgan, go'daklik chog'i o'tgan, ilk qadamlarini qo'ygan, yoshlik, keksalik davrlarini surgan, xotiralari muhrlangan, ota-bobolarining yurti, farzand-u nabiralari ulg'aygan zamindir!

Mitti chumolini ko'ring, rizq talabida qancha joylarga boradi, tepaliklarga qiynalib chiqadi. Bu ham o'z iniga – Vataniga qaytadi. Ba'zi hayvonlar asl Vatanidan boshqa joyga ko'chirilsa nobud bo'lib qoladi. Ko'ryapsizmi, hamma hazrati insondan tortib mayda hasharotlargacha o'z Vatanini sevadilar. Demak, bu mavjudotlardagi Allohning odati, chiqargan qonuni! Uni inson fitratiga Alloh solib qo'ydi. Bo'lmasa harorati oltmishga yetadigan issiq joylarda yoki harorat noldan past bo'lgan shimoliy qutblarda yoxud o'rmonlarda,



har kun hayot uchun xavfli yerlarda ularni yashashga nima majbur qiladi?! Ularni bunga undagan narsa faqatgina Vatanlariga bo'lgan muhabbatdir.

Insonning Vatani oldida bir necha haq va vazifalari bor. Ularning eng muhimlari uchta:

- o'z Vataniga chin muhabbat qo'yish;
- Vatanini obod etish.
- Vatanda fasod va buzg'unchilik ishlari bilan mashg'ul bo'lmaslik.

Hamasr olimlardan shayx Muhammad G'azzoliy (rahmatullohi alayh) Vatan haqida oz va soz, zarhal harflar bilan yozib qo'yadigan juda go'zal ta'rif aytgan: “Bashariyat o'z yerini undagi narsalari bilan, garchi u hech kim yashamaydigan cho'l bo'lsa ham yaxshi ko'raveradi. Muhabbati yurakka singigan, inson unda bo'lganda xotirjam, yiroq ketganda talpinadigan, hujum qilinganda asraydigan, kamsitilganda g'azablanadigan makon Vatandir”

Bu tuyg'u – muhabbatni inson o'zidan o'zi paydo qilgan emas. Uni bandasi qalbiga solgan, qon-qoniga, jon-joniga singdirib qo'ygan, yaratishda muhabbati ila qorib yaratgan zot uning Xoliquidir. Demak, bu ilohiy tuyg'udir. Qalbga muhabbatni Alloh solganidan keyin garchi u hech kim yashamaydigan cho'l bo'lsa ham uni yaxshi ko'raveradi. Imkoniyatlarni chegaralanganligi, rizqining tangligi va sharoitning torligiga e'tibor bermaydi, undan shikoyat ham qilmaydi. Chunki Laylining haqiqiy jamolini ko'raman deganlar unga Majnunning ko'zi bilan qaramog'i kerak!

Haqiqatda inson qiynalsa-da o'z Vatanida boshqa joyga qaraganda xotirjam, hur yashaydi. “O'zga yurtida shoh bo'lguncha, o'z yurtingda gado bo'l”, hikmati ham bejiz aytilmagan. Kambag'al inson o'z yurtida podshohlar kabi hayot kechiradi. Hikmatlarda: “Kishining rizqi o'z vatanida bo'lishi saodatdir”, deyilgan.

Imom Shofe'iy (rahmatullohi alayh): “Insonning xoru zor bo'lishi uchun Vatani va yaqinlaridan ayrilishning o'zi kifoya!”, degan.



Vatanni-ku qo'ying, inson o'ziga tegishli bir qarich yerni ham birovga bergisi kelmaydi. Mo'min-musumon Vatani sarhadlariga hujum qilinganini ko'rsa, himoyaga shaylanadi. Kerak bo'lsa, uning yo'lida jonini qurbon qiladi. Yovga Vatanning bir hovuch tuprog'ini ham berib qo'ymaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Vataningizni sevish, uni ardoqlash lozim. Vatan oldidagi burch va majburiyatlaringizni chin dildan ado etish kerak. Vatanga muhabbat hissi, tuyg'usi mahalliy turizm orqali ham o'quvchilarga singdirish mumkin. Ichki turizmga ta'rif beramiz. Ichki turizm O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududidagi sayohatini o'z ichiga oladi. Mahalliy turist — O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxs. Turizm — jismoniy shaxsning vaqtincha bo'lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda doimiy yashash joyidan jo'nab ketishi (sayohat qilishi).

Turist — vaqtincha bo'lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda vaqtincha bo'lish mamlakatiga (joyiga) 24 soatdan ketma-ket 12 oygacha bo'lgan davrga boruvchi yoki vaqtincha bo'lish mamlakatida (joyida) kamida bir kecha tunab qoluvchi jismoniy shaxs.

O'zbekistonning geografik jihatdan joylashishi va iqlim sharoiti sayohatlarning deyarli barcha turlari uchun qulay. Ayniqsa, tarixiymadaniy obidalarga boy bo'lgan Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaharlar, zamonaviy inshootlarga ega bo'lgan Toshkent shahri Respublika aholisining sayr-sayohat manzillari hisoblanadi. 2500–3000 yillik tarixga ega bo'lgan Termiz, Qarshi, Shahrisabz, Qo'qon, Namangan, Nukus, Urganch kabi shaharlar ham qadimiy yodgorliklari bilan ko'pchilikning diqqat-e'tiborini jalb etadi. So'nggi 40-50 yil ichida yangidan



qad ko'targan Yangiyer, Guliston, Navoiy, Zarafshon, Jizzax kabi shaharlar ham zamonaviy madaniy qurilish binolari, sport inshootlari, ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari va ularning mahsulotlari bilan jahonga tanilmoqda. Respublikamizning mustaqilligi tufayli va shaharlarning bugungi ko'rk-jamoli keskin ravishda o'zgarib borishi tufayli aholi o'z sayrlarini yurtimiz hududlarida o'tkazmoqda.

Markaziy Osiyo respublikalari va boshqa mustaqil davlatlarning sayyohlari O'zbekistonning bugungi ravnaqi, istiqboli, chiroyiga havas bilan qaramoqda. Xorijiy mamlakatlardan tashrif buyurayotgan mehmonlar, ishbilarmonlar, sayyohlar va rasmiy vakillar, rahbarlar ham Toshkent, Samarqand Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlarga sayr-sayohat uyushtirmoqdalar. Sayyohlarni faqat tarixiy madaniy yodgorliklarga emas, balki osmono'par, baland arxitektura qurilishlari, sport komplekslari, yirik sanoat ishlab chiqarish korxonalari, shaxsiy firmalar, qo'shma korxonalar, savdo, tijorat maskanlari, oliy ta'lim muassasalari uchun ham jalb qilish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Vatanga muhabbat hissi eng muqaddas tuyg'ulardan biri bo'lib bu tuyg'uni o'quvchilar qalbida chuqurroq ildiz otishi uchun nafaqat pedagog hodimlar, balki ota-onalar ham mas'ul hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zRning "Turizm to'g'risida"gi qonuni. T., 1999.
2. O'zRVMning "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 1999.
3. O'zRVMning turizmni rivojlantirish va shu sohada kadrlar tayyorlash bilan bog'liq qarorlari. 1999.
4. Abdumalikov R. Sayohat sahifalari. T., Yosh gvardiya, 1971.
5. Abdumalikov R., Xoldarov T., Daurenov E.Yu. Turizm. T., 1997.



6. Подготовка общественных туристических кадров. М., 1982.
7. Туризм в школе. М.: ФиС, 1983.
8. Шальков Ю.А. Здоровье туриста. М.: ФиС, 1987.
9. Хусанбаев Б.М., Тулаганов Л.А., Разина В.Г. Дорогами Великого шелкового пути. Т., 1995.
10. Колбинцев А.В. В горах Чимгана. Т., О‘zbekiston, 1984.
11. Рацек В. Путешествие по Ферганской долине. Т., 1978.
12. Usmanov M.R. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari (Samarqand viloyati misolida).
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti. 2004.